

ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN TURKISTONDA OLIB BORILGAN
IQTISODIY SIYOSAT

Raximov Oybek Xasanboy o'g'li

E-mail: oybekjon.9990@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Rossiya imperiyasi davrida Turkiston hududidagi sanoatlashuv jarayonlari hamda Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan siyosatning iqtisodiy tomonlari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari Turkiston hududidagi iqtisodiy rivojlanishga doir bir qancha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, mustamlaka, mahalliy, ijtimoiy-siyosiy, kapitalistik, moliya.

Аннотация: В данной статье описаны процессы индустриализации на территории Туркестана в период Российской империи и экономические аспекты политики, проводимой Российской империей. Кроме того, даются некоторые сведения об экономическом развитии на территории Туркестана.

Ключевые слова: экономика, колониализм, местное, общественно-политическое, капиталистическое, финансы.

Abstract: This article describes the processes of industrialization on the territory of Turkestan during the period of the Russian Empire and the economic aspects of the policies pursued by the Russian Empire. In addition, some information is given about economic development in Turkestan.

Keywords: economics, colonialism, local, socio-political, capitalist, finance.

Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida mustamlaka hokimyatini o'rnatgandan so'ng birinchi navbatda o'lka iqtisodiyotini o'z manfaatlariga bo'ysundirishga intilgan. Mustamlaka imperiya hukumatining o'lkadagi iqtisodiy siyosat mahalliy xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotiga o'zinnig jiddiy ta'sirini o'tkazadi. Ayni, shunday vaziyat Turkistonda mustamlaka tartiblarni o'rnatilib borishi jarayonida iqtisodiy siyosat bevosita hukmron qatlamning iqtisodiy-siyosiy manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Rossiya imperiyasi hukmron doiralarining Turkiston iqtisodiyotidagi "mavqeyi" bo'xona ishi, moliyaviy sarmoyalarni joylashtirishdab sanoat ishlab chiqarish sohasida eng avvalo, savdo faoliyatida, yer-suv, soliq siyosati va pahtachilikda, tabiiy boyliklarni

o'zlashtirishda va ulardan foydalanish sohalarida kuzatiladi. Bu davrga kelib, yevropaning yetakchi kapitalistik mamlakatlarida shu jumladan, Rossiya imperiyasida ham monopolistik kapitalning o'sib borish jarayoni kuzatiladi [1]. Mazkur jarayon ushbu mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hayotiga ta'sirini o'tkazdi.

Iqtisodiy va siyosiy majburiyat podsho hukumatini rus ishbilarmonlar va savdo doiralari manfaatlarini himoya qilishga, xususiylar xom ashyo manbaini topishga majbur qildi.

XIX asr 60-yillarida ikkinchi yarmidan boshlab tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan rus sanoati tomondan ko'proq yangi arzon xom ashyo manbaiga va ishchi kuchiga talab o'sib bordi. Tabiiy boyliklariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyo rus ishbilarmon doiralari o'ziga jalb etdi.

Rossiya imperiyasi va Turkiston o'lkasi mustamlaka doiralari dastlabki vaqtdan rus-osiyo savdo munosabatlarining yanada rivojlanib borishiga alohida e'tibor qaratib keldilar. Bu borada Chernyaev, fon Kaufman, Krijanovskiy, Ramanovskiy, ayniqsa, rus savdo-sanoati doiralaribilar yaqin aloqalarda bo'lgan A.I. Gluxovskiy larning faoliyatlari alohida ajralib turadi. Ular o'z faoliyatlari davomida doimiy ravishda o'lkani o'rganishga bo'lgan ulkan qiziqishi oshirishga va yanada samarali etib, Turkiston bozorini imperiya manfaatlarini yo'lida himoya qilib keldilar [2]. O'z navbatida Rossiya ishbilarmon doiralari ham O'rta Osiyo bilan savdo munosabatlari kengayib borishidan va Turkiston boyliklarining tezkor

ekspluatatsiya qilinishidan manfaatdor edilar.

Turkiston bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish va rus savdo-sanoati doiralari manfaatlarini himoya qilib, mustamlaka hukmron doiralari O'rta Osiyo savdo munosabatlariga katta e'tibor qaratib, ichki bozorni "himoya qilib" kelganliklarini 1868 yili Kaufman tomonidan qabul qilingan buyruqda ham ko'rishimiz mumkin. General Abramov nomiga jo'natilgan mazkur buyruqqa ko'ra o'lkaga olib kelinayotgan yevropa sanoati mahsulotlariga taqiqlovchi boj soli g'ini solish aytib o'tilgan edi [3].

Turkiston o'lkasida tayyor mahsulotlar savdosi nihoyatda katta daromad keltirgan. O'lkada halqlarining savdoga va savdogarlikka moyilligidan bu yerda juda katta mablag' aylanmasi mavjud edi. O'rta Osiyoda rus savdogarlari faoliyatlarini jonlantirish maqsadida, Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy "Moskva Toshkent savdo o'rtoqligi"ni tashkil qilish to'g'risidagi taklifi bilan Moliya va Tashqi ishlar Vazirliklariga murojaat etdi. Romanovskiy tomonidan olib borilgan muzokaralardan so'ng ushbu tashkilot savdo-sanoat doiralarining shahsiy mablag'lari hisobiga 100.000 rubl sarmoya bilan tashkil topdi [4]. Biroq bu tashkilotning faoliyati kutilgan natijani bermadi. Yangi zabt etilgan o'lkada kommunikatsiya aloqalarining zaifligi va yaxshi o'rnatilmaganligi savdogar sanoat doiralarini tashvishga solganligi bilan izohlash mumkin. Shunga qaramay Rossiya imperiyasi va O'rta Osiyo o'rtasida savdo ayirboshlash, 1865-1871-yillar davomida eksport qiymati 12 barobar mahsulot chiqarish 9 barobar o'sganligini kuzatish mumkin [5]. Mahsulotlar orasida tekstil mahsulotlari birinchi o'rinni egallab, ularning miqdori uzluksiz o'sib borgan. 1867 yilda 3857209 so'm, 1871 yilda 3904820 va 1873 yilda 4210671 so'm miqdorida bo'lgan. Rus sanoati mollari bilan savdo hajmi 1865 yilda 523447 so'm bo'lsa 1873 yilga kelib 6487880 so'mga ko'paygan [6].

XIX asr 80-yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston bilan savdoni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlari o'z ijobiy natijalarini bera boshladi. Natijada savdo aylanmasi kengayib, o'lkada kapitalistik savdo munosabatlari rivojlanib, tobora ko'proq jahon bozori tizimiga jalb etila bordi. Bu jarayonning ijobiy tomoni Turkiston, Buxoro, Xiva savdogarlari kapitalining jahon bozori munosabatlariga tortilib, ushbu kapital qiymatining o'sib borishi bilan izohlanadi. Biroq, bu muvaffaqiyatlar mustamlaka moliya kapitalining buzg'unchilik faoliyatini va savdo siyosatining kamchiliklarini oqlay olmaydi. Yaratilgan shart sharoitlar yirik ulgurji savdogarlar bilan, mayda chayqovchilar jalb qildi.

Shuningdek, Rossiya imperiyasi hukumati va savdo-sanoat doiralarining Turkiston o'lkasidagi savdo-sotiq borasida yurgizgan siyosati to'liq mustamlakachilik asosida rivojlantirilib borildi. Shu sababli ham o'sha davr rus davriy matbuoti sahifalarida Turkistonda Rossiya hukmronligining asl mohiyati "savdo manfaatlarini ta'minlashdir" – deb e'tirof etadi. Shunga o'xshash fikr ikkinchi bir gazetada ham bayon etilgan: "shuni takror aytamizki, o'lkadagi Rossiya hukmronligi savdo nuqtai nazaridan katta ahamiyatga molikdir" [7].

XIX asrning 60-70 yillarida savdo munosabatlari bir necha barobar nisbatan turg'unlikda o'sgan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib, Rossiyaning Turkiston bilan savdo munosabatlarining tez sur'atlar bilan o'sib borganligi kuzatiladi. Masalan, ikki tomonlama savdo aylanmasini Sirdaryo viloyatlar bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, 1901 yilda Sirdaryo viloyati bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 45300000 rublga yetdi. Buning 30900000 rubli viloyatga keltirilgan mollarga tegishli edi. Ular orasida Rossiya gazlamalari eng ko'p 20000000 rublni tashkil qildi [8]. 1906 yilda Sirdaryo viloyati bilan savdo aylanmasi biryarim barobarga o'sib 73000000 rubl bo'lib shundan 55000000 rubli Rossiya mollari edi [9]. Albatta, savdo-sotiq munosabatlari Rossiya manfaatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirib borilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida o'z mustamlaka boshqaruv tizimini mustahkamlab olgach, birinchi navbatda o'lkaning bor xam ashyo resurslarini o'zlashtirishga hamda metropoliya markazidagi sanoat karxonalarinni arzon maxsulotlar bilan ta'minlashga harakat qilgan. Shuningdek, o'lka iqtisodiy hayotini to'liq mustamlaka mafaatlardan kelib chiqib nazoratga olish maqsadiga bu yerda bank-moliya va bojxona tizimlarini olib kirdi. Bir qator yirik davlat va savdo-sotiq banklari filiallari tashkil etildi. O'lkada rus kapitali monopoliyasining kuchayishi iqtisodiy hayotni Rossiya imperiyasi iqtisodiga qaram bo'lib qolishiga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гиндин И.Ф. К вопросу об экономической политики царского правительства в 60-80 годах XIX века // Вопросы истории. №5, –С.63.

2. Тухтабеков К.А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти. т.ф.н. дисс.. –Т.: 2011. –Б. 47.
3. Наше торговое положение в Средней Азии //Московские Ведомости № 139. Торговля в Туркестанской области//Москва. №97ю Условия торговли хлопком //Москва №92-93.и др.
4. Тухтабеков К.А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти. т.ф.н. дисс.. –Т.: 2011. –Б. 49.
5. Вексельман М.И. Российский и монополитической и иностранных капитал в Средней Азии (XIX -начало XX вв.) Т., 1987. –С.10
6. Димитева-Мамонова А.И. Путеводитель по Туркестану и Средней Азиатской железной дороге. СПб.1903. –С. 124-125
7. Тарихи шохидлиги ва сабақлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. –Тошкент. 2001.
8. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. –Тошкент; Шарқ. 2006. –Б.290.
9. Гребенкин Г. Узбеки // Туркестанские ведомости. 1871, № 30.